

OILANING JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI VA ROLI

Abdusalimova Fotima Valijon qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
Chet tillar fakulteti, Xorijiy til va adabiyot yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaning jamiyatdagi o‘rni va oila a‘zolarining roli haqida so‘z boradi. Oiladagi muhitning unda tarbiya topadigan farzandlarga ta‘siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, sog‘lom muhitda ulg‘aygan farzandlar qanchalik jamiyatga foyda keltirishi haqida baxs yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Oila, jamiyat, ta‘lim-tarbiya, jamiyat hayotida oilaning o‘rni, yoshlarning oila haqida qarashlari.

Kirish: Oila – bir necha insonlarni ishonch, muhabbat, sadoqat tuyg‘ulari bilan birlashtirib turuvchi kichik jamiyatdir. Har bir inson shu zamon va makonda yashar ekan uning yaxshi amallari va shu asnoda yomon amallari ham yashab turgan zamonasiga birdek tegishli bo‘ladi. Oila barcha xalqlar va elatlar orasida qadim-qadimdan muqaddas sanalib kelingan. Ota-bobolarimiz biz uchun meros qoldirgan asarlarida, yozma va og‘izaki manbalarda o‘z aksini topgan. Qadimda o‘zbek halqining hayotida ham oila va oilaviy munosabatlarga alohida e‘tibor berilgan. Bizning mukammal shaxs bo‘lib yetishishimizda ham oilaning o‘rni muhim. Ilmli, e‘tiqodli oiladan jamiyatga foydasi tegadign farzandlar dunyoga keladi deb ishonilgan. Oila jamiyatning asosidir. Oila yoshlarni tarbiyalovchi ilk maskandir.

Oila yagona birlik sifatida ishlaydi, bu holda ota-onalar tabiiy ravishda bolalarga g‘amxo‘rlik qiladilar va ular o‘zlarini boqish imkoniyatiga ega bo‘lgunlaricha, ularni hayot uchun zarur narsalar bilan ta‘minlaydilar. Aka-uka va opa-singillar bir-biriga g‘amxo‘rlik qilishlari ham oiladagi muhitning natijasidandir. Oilada ota-ona,

shuningdek, ularning farzandlari mas'uliyatli fuqaro bo'lib ulg'ayishlari uchun odob va axloqiy me'yorlarni o'rnatish uchun masuldirlar.

Oilada ota-onaning o'rni beqiyos. Chunki har bir ilmiy erkak va ayoldan ilmiy-ahloqli farzandlar tarbiya topadi. Shuni takidlashimiz kerakki, farzand tarbiyasiga bizning hayotimizda hayot-mamot masalasi kabi qaralishi zarur. Ya'ni bizning ongimizda toki biz o'z-o'zimizni isloh va tarbiya qilmas ekanmiz kelajakda farzandlarimizga beradigan tarbiyamizda ancha qiyinchiliklarga ro'baro bo'lishimiz va xatolarga qo'l urushimiz mumkinligi mayoqdek yo'l ko'rsatib turishi zarur. Siz va biz tarbiyalayotgan farzandlar jamiyatning ongli va mas'uliyatli a'zosi bo'lishlari lozim. Ya'ni bir narsani yodda saqlashimiz kerak, inson faqat jamiyatdagina rivojlanishi mumkin. Boshqa insonlar bilan bo'lgan o'zaro muloqot va mehnat insonlarning kamol topishiga va rivojlajishiga yordam beradi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarida “Boshqa odamlarga foydasi tegmaydigan inson o'likdir - deb yozadi. U bu so'zlari bilan nima demoqchi. Jamiyat a'zosi ekanmiz uni rivojlantirish va uning gullab-yashnashi uchun xizmat qilishimiz darkor. Aslida oilaning jamiyatdagi o'rni va mavqeyini saqlash uchun qadimdan katta e'tibor qaratilgan. Oila a'zolarining bir-biriga samimiy munosabatlari, mehr-u oqibatligi esa ana shu oilada muhim bo'lgan kabi jamiyatda oilaning tinchligi va oila a'zolari bir-biri bilan murosaali yashashi juda muhim sanaladi.

Oila mustahkamligining asoslari nimada? Rasuli akram alayhissalomning bir muborak hadislarida “Agar kim uylansa, yaxshi niyat bilan oila qursa dinining yarmi mukammal bo'libdi, qolgan yarmida Allohga taqvo qilsin, Allohdan qo'rqsin” deya marhamat qilganlar. Ya'ni bu hadisda oila qurayotganda ham o'z juftingizning ilmi, axloq-odobiga tayangan holda qaror qilish ta'kidlangan.

Ko'pgina tadqiqotlarga ko'ra, oilaviy vaqt o'tkazish bolaning ruhiy farovonligini mustahkamlashi isbotlangan. Bolaning oilasi bola uchun qancha ko'p vaqt ajratsa, uning ruhiy tushkunlik xavfi shunchalik kamayadi. Sog'lom oilaviy munosabatlar bolaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ruhiy farovonlikka yordam beradi. Biroq, salbiy oilaviy munosabatlar ruhiy salomatlik muammolarini keltirib chiqarishi

ham tayin. Farzand va ota-ona o‘rtasidagi munosabatlar bolaning hayotini yanada xavfsiz va barqaror his qilishiga yordam beradigan barqaror oilaviy hayotni ta‘minlaydi. Agar oilada bolalarga sog‘lom kurash usullarini va sog‘lom amaliyotlarni o‘rgatilsa, masalan, jismoniy mashqlar aql-idrokni o‘rnatishga yordam berilsa, ular odamda ruhiy stressg chidamlilikni rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, stress va ruhiy jihatdan chidamli shaxslar jamiyatning mustahkamligiga ham yordam beradi.

Hozirda yurtimizda oilani mustahkamlash, rivojlantirish, oilaviy muhitini yaxshilash, oilaviy an‘analarni saqlab qolish borasida tadqiqotlar olib borilayapti. Buning sababi xalqimizga xos bo‘lmagan ayrim illatlar - oilaviy ajrimlar, turli nizolarni keltirib chiqarayapti. Bunday illatlar muqaddas bo‘lmish oila va uning a‘zolarini ikki o‘t orasida qoldirmoqda. Aynan shu ajrimlar va ikki inson bir-birini tushunmasligi, o‘rtada farzandlarni sarson qilmoqda. Farzandlar otasiz yoki onasiz qolishmoqda. Aksariyat holda ular ikkisidan ham mahrum, o‘z farzandlarini tan olishmaydi yoki voz kechib ketishmoqda. Bu esa jamiyat hayotida oilaning o‘rni yo‘qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Aytingchi, bu siz o‘zbek xalqining urf-odatlarini va dunyo qarashlarlariga to‘g‘ri keladimi? Har qanday bolani o‘z farzandidek ko‘ruvchi, mehr-muhabbatga to‘la hayotni in‘om etuvchi bu o‘zbek xalqimizga xosmi? Farzandining yoshi qirqdan o‘tgan bo‘lsada bolam, bo‘tam degan, farzandini qo‘liga olgan birinchi kundanoq faqat farzandi uchun yashagan bu o‘zbek xalqidir. Agar oila bo‘lmasa, hayot ham bo‘lmaydi! Oila faqat sizning ehtiyojningizni qondirish uchun emas, balki oila a‘zolariga ham xizmat qilish uchundir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari
2. O‘zbekiston Respublikasi oila haqida sayt.